

UO'K687.12-053.87

**IMPRESSIV YONDASHUV ASOSIDA AYOLLAR KIYIMI SIFAT  
KO'RSATKICHLARINI SHAKLLANTIRISH**

magistr **D.X.Inomova**, dotsent **N.X.Mirtalipova**, kat.o'qit. **N.M.Mirfayazova**  
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

**A.J. Kurbonov**

assistent o'qituvchi "Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash  
muxandislari istituti" Milliy tadqiqot Universiteti

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada o'rta yoshning ikkinchi davri va keksa yoshdagi ishbilarmon ayollar imidjini yaratishda insonning biososial, morfologik, fiziologik, antropometrik, ijtimoiy, demografik hususiyatlarini roli va impressiv yondashuv tushunchasi hamda kiyim loyihalash jarayonida uni qo'llash imkoniyatlari batafsil yoritilgan.. Shuningdek, ilmiy ish doirasida olib borilgan o'rta yo'shning ikkinchi davri va keksa yoshdagi ayollar kiyimi turlari hamda konstruktiv - kompozision yechimini aniqlash bo'yicha marketing tadqiqotlar tahlili, so'rovnomalari natijalari keltirilgan. Katta yoshdagi ishbilarmon ayollar garderobi tahlili berilgan, hamda ular uchun raqobatbardosh kiyimlarni loyihalash jarayonida biosotsial xususiyatlarini amalga oshirish ishlari ko'rsatilgan. O'rta yo'shning ikkinchi davri va keksa yoshdagi ayollar uchun klassik uslubidagi ish kiyimini loyihalash jarayoni va impressiv yondashuvni ahamiyati, ayollar tanasining antropomorfologik xususiyatlarini o'rganish metodologiyasi tahlili, klassik uslubidagi ish kiyimning talablari, dizayn va kompozitsion yechimiga ta'sir qiluvchi o'rta hamda keksa yoshdagi ayollarning antropomorfologik va psixologik hususiyatlari yoritilib berilgan. Klassik uslubidagi kiyimlarda qo'llaniladigan kostyumbop va ko'ylakbop matolar turlari tahlili, majmuaviy baholash usuli asosida matolarning yuqori ko'rsatkichga ega turlari tavsiyalari keltirilgan. Kiyimlarni konstruktiv va dekorativ yechimlari tahlili, kompozision vositalari yoritilib, ish kiyimiga qo'yiladigan talablarni ahamiyatlilik darajasi bo'yicha shakllantirish usullari ko'rib chiqilgan.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается роль биосоциальных, морфологических, физиологических, антропометрических, социальных, демографических характеристик человека в создании образа деловой женщины второго периода среднего и пожилого возраста, а также тщательно освещено понятие импрессивного подхода и возможность применения его в процессе проектирования одежды. Также представлены результаты маркетинговых

исследований анализа и анкетирования для определения видов женской одежды второго периода среднего и пожилого возраста, а также конструктивного и композиционного решения, которые проведены в рамках научной работы. Дан анализ гардероба пожилых деловых женщин и показана реализация биосоциальных особенностей в процессе проектирования для них конкурентоспособной одежды. Освещены процесс конструирования офисной одежды классического стиля, для женщин второго периода среднего и пожилого возраста и значение импрессионистического подхода, анализ методики изучения антропоморфологических особенностей женского тела, требования к офисной одежде классического стиля выделены факторы, влияющие на конструктивно-композиционное решение антропоморфологических и психологических особенностей женщин среднего и пожилого возраста. Представлен анализ видов костюмных и сорочечных тканей, используемых в одежде классического стиля и даны рекомендации видов тканей с высокими эксплуатационными характеристиками на основе методики комплексной оценки. Рассмотрены анализы конструктивно-декоративных решений одежды, выделены композиционные средства, способы формирования требований к офисной одежде по степени значимости.

**Abstract:** This article reveals the role of biosocial, morphological, physiological, anthropometric, social, demographic characteristics of a person in creating the image of a business woman of the second period of middle and old age, and also carefully highlights the concept of an impressive approach and the possibility of using it in the process of designing clothes. Also presented are the results of marketing research, analysis and questioning to determine the types of women's clothing of the second period of middle and old age, as well as constructive and compositional solutions, which were carried out as part of scientific work. An analysis of the wardrobe of elderly business women is given and the realization of biosocial features in the process of designing competitive clothes for them is shown. The process of designing classic-style office clothes for women of the second period of middle and old age and the importance of the impressionistic approach are highlighted, the analysis of the methodology for studying the anthropomorphological features of the female body, the requirements for classic-style office clothes, the factors influencing the constructive-compositional solution of the anthropomorphological and psychological characteristics of middle-aged women are highlighted. and old age. An analysis of the types of suit and shirt fabrics used in classical style clothing is presented, and recommendations are made for types of fabrics with high performance characteristics based on a comprehensive assessment methodology. Analyzes of constructive and decorative clothing solutions

are considered, compositional means, methods of forming requirements for office clothing in terms of importance are highlighted.

**Kalit so‘zlar:** Impressiv, antropomorfologik, loyihalash, kompozitsion, kiyim, metodologiya, psixologik, transformasiya.

## KIRISH

Yangi ming yillikda jamiyat o‘zining yosh tarkibini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Demografik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jamiyat tarkibida keksalar va qariyalar salmog‘ining sezilarli o‘sishini isbotlaydi. Sog‘liqni saqlash sifatini oshirish, tibbiyotni jadal rivojlantirish, sanitariya nazoratini yaxshilash, ta’lim va iqtisodiy farovonlikdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish so‘nggi o‘ttiz yillikda oltmish va undan katta yoshdagi dunyo aholisining ikki barobar ko‘payishiga olib keldi, 2050 yilga kelib uning ulushi yana ikki barobar oshishi bashorat qilinmoqda.

Katta yosh guruhidagi ayollar kasbiy kompetensiyaga va katta tajribaga ega bo‘lib, jamoat, ilmiy, tibbiyot, loyiha-konstrukturlik tashkilotlarida qimmatli kadrlardan biri xisoblanadi. Shunday ekan, katta yoshdagi ishiga lavozimiga mos holda imidjini yaratish dolzarb muammolardan biridir[1].

Katta yoshdagi ishbilarmon ayollar imidjini yaratishda kiyim dizayni muhim rol o‘ynaydi, va u insonning biososial, morfologik, fiziologik, antropometrik, ijtimoiy, demografik va boshqa xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni o‘zida mujassam etadi. Bugungi kungacha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ko‘rsatilgan xususiyatlar ayollar yoshining o‘zgarishiga chambarchas bo‘g‘liq bo‘lib, 18 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan iste’molchilarining yosh guruhlariga ta’siri ko‘proq o‘rganilgan [2]. Katta yoshdagi ayollar jozibador imidjini yaratish uchun kiyim dizayni bo‘yicha tavsiyalarning yo‘qligi, hamda ilmiy asoslanmaganligi bu guruhdagi iste’molchilar uchun kiyim yaratishda impressiv yondashuv asosida maqsadli tadqiqot olib borish vazifasi aniqlandi.

Kiyim va uning elementlarini birinchi marta ko‘rgan odam kiyim predmetlaridan birinchi his-tuyg‘ularni oladi. Bu, odatda, kiyib ko‘rish jarayonida buyum bilan tanishish paytida sodir bo‘ladi, keyin kiyimni ekspluatasiya jarayonida his-tuyg‘ular boshdan kechiriladi. Kiyimdan taassurotlar o‘zgarishi mumkin. Kiyimning impressiv tarkibi tushunchasi: "bu kiyim idrok etilganda odamda qoladigan taassurotdir va u kiyimning rangi, materiallari va shaklidan olingan taassurot asosida shakllanadi". Kiyim bilan aloqa qilish va uni turli sezgi organlari orqali idrok etishda odamda paydo bo‘ladigan taassurotning elementar birlklari (ko‘rish, eshitish, teri va boshqalar) sifatida turli xil sezgilarni o‘rganish. Kiyimning turli parametrlari, uning uchun materiallar inson sezgilari tomonidan qabul qilinadi va modal va intermodal sezgilarni tashkil qiladi. Kiyim yaratishda yondashuv usullarini umumlashtirib, biz an’anaviy va

impressiv loyihalashni solishtirishimiz mumkin. Xorijiy olimlar [3] tomonidan impressiv loyihalash raqobatbardosh kiyim dizaynini ishlab chiqishga va loyihaviy-konstrukturlik ishlarni takomillashtirishga yordam berishi aniqlangan (1-rasm).

An'anaviy yondashuv

- inson haqidagi dastlabki ma'lumotlarni shakllantirish bosqichida faqatgina antropometrik ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar inobatga olinadi

Konseptual yondashuv

- inson haqidagi dastlabki ma'lumotlarni shakllantirish bosqichida antropometrik ko'rsatkichlar va asosiy g'oya inobatga olinadi

Impressiv yondashuv

- inson haqidagi dastlabki ma'lumotlarni shakllantirish bosqichida kiyim idrok etishning psixologik xususiyatlari inobatga olinadi

### 1-rasm. Kiyim loyihalashning zamonaviy yondashuv turlari

Kiyim inson hissiy idrokiga ta'sir qilganligi sababli, kostyuming hissiy sifatida tavsiflangan funksiysi paydo bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Ushbu funksiya "his-tuyg'ular - kiyim" o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda loyihalashga alohida yondashuvni talab qiladi.

Bugungi kunga kelib, ranglarning his-tuyg'ularga ta'siri eng ko'p o'r ganilgan. Biroq, rangdan tashqari shakl va siluet, materiallar (to'qima, to'quv, pardozlash xususiyatlari, ma'lum bir brend va uslubga tegishli) kabi bir qator ko'rsatkichlarni o'r ganish xam qiziqarli hisoblanadi.


Impressiv yondashuvda iste'molchining o'zi, ayniqsa kiyim va kiyimda o'zini idrok etishi ustuvor ahamiyatga ega, chunki impressiv yondashuv iste'molchini, uning ehtiyojlarini, qomati xususiyatlarini birinchi o'ringa qo'yishni, uning kiyimni idrok etish jihatlarini har tomonlama o'r ganishni taklif qiladi, an'anaviy yondashuvda esa kiyim asosan tipaviy qomatga ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu, ayniqsa, keksa yoshdag'i rahbar yoki etakchi mutaxassis bo'lib ishlovchilar uchun kiyimni loyihalashda, nafaqat yoshga bog'liq o'zgarishlar, balki ijtimoiy mavqeい, shaxsning fiziologik va psixologik xususiyatlari ham o'zgarganda juda muhimdir [4].

Shuningdek, impressiv yondashuv kiyim dizaynida turli xil iste'molchilar guruhlari taassurotlarini xisobga olishni nazarda tutadi. Impressiv yondashuvni afzalligi kiyimni badiiy loyihalash jarayoni bosqichida bir necha muammolarni yechishni taklif etish, kiyimning iste'molchilarda taassurot qoldiradigan tarkibiy

qismlarini o‘rganish, shuningdek, loyihalashda qo‘llaniladigan an’anaviy uslubiy asos bilan birga kiyim psixofizikasi metodologiyasi va idrok psixologoyasidan foydalanishdan iborat.


### MATERIALLAR VA METODLAR

Ushbu ilmiy ish doirasida olib borilgan marketing tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 45 yoshdan 74 yoshgacha bo‘lgan iste’molchilar guruhi uchun kiyimlar o‘lchamsiz, keng va erkin siluetli hamda ommaviy ishlab chiqarish sharoitida bu yosh guruhi o‘lchamiga mos kiyim yaratish imkoniyati yo‘qligi sababli buyumni o‘lchamini o‘zgartiruvchi transformasiya elementlari qo‘llaniladi. Bu esa kiyimni kompozision yechimiga hamda yoshi katta ayolning tana proporsiyasini ko‘rinishiga salbiy ta’sir etishi mumkin (2-rasm).



### 2-rasm. Siluet va transformasiya elementlarni qo‘llanilish tahlili

Katta yoshdagи yuqori lavozimda ishlaydigan ayollar o‘rtasida olib borilgan so‘rovnoma natijasida ma’lum bo‘ldiki, bu toifadagi ayollar garderobini asosan klassik uslubi va elegant-sport uslubidagi kiyimlar tashkil etadi (3-rasm).



### 3-rasm. Ayollar garderobi tahlili natijalari

Katta yoshdagilar ayollar uchun raqobatbardosh kiyimlarni loyihalash jarayonida biosotsial xususiyatlarini inobatga olib quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- kiyimning talablari, dizayn va kompozitsion yechimiga ta'sir etuvchi katta yoshdagisi ayollarning antropomorfologik hamda psixologik xususiyatlari aniqlandi va o'rganildi;

- katta yoshdagisi ayollarning jismoniy holatini o'rganish metodologiyasi takomillashtirildi;

- kiyimlarni loyihalash maqsadida ayollar tipologiyasi tasnifi ishlab chiqildi va kiyim detallarini tana xususiyatlariga vizual ta'siri aniqlandi;

- yoshi ulug' ayollarning turli tana turlari uchun kiyim modellarining konstruktiv va kompozitsion yechimlari taklif etildi;

- yoshi ulug' ayollarning asosiy tana turlari uchun modellar va asosiy model-konstruktiv asoslar to'plami ishlab chiqildi.

Toshkent shahrida o'rganilayotgan yosh guruhidagi ayollarning antropomorfologik tadqiqoti o'tkazildi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shaxrida 50-70 yoshdagisi (shu jumladan) ayollar soni 21260 kishini tashkil qiladi. Ma'lumotlar 2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, butun mintaqaga bo'yicha berilgan. Ushbu turdagi tadqiqot uchun respondentlarning tasodifiy tanlanishi bilan uning umumiy hajmi kamida 60 kishi bo'lishi kerakligi aniqlandi. Ushbu ish doirasida 50 yoshdan 75 yoshgacha bo'lgan, bo'yi 148-172 sm, ko'krak qafasi 88-120 sm, to'rtta vazn toifasidagi ayollarda o'lcham tadqiqotlari o'tkazildi.

Tadqiqot o'tkazishda respondentlar soni o'rganilayotgan xususiyatlarning har biri uchun uchdan besh kishigacha bo'lgan vakillikni hisobga olgan holda tanlandi. Ishda 12 o'lchovli xususiyatlar o'rganildi. Bunda respondentlar soni 74 kishini tashkil etdi. Adabiyotlardan [5] ma'lum bo'lishicha, shunga o'xshash tadqiqotlar uchun 60 kishilik tanlov hajmi yetarli, chunki ishning maqsadi umuman olganda ko'p sonli o'rganilgan raqamlarni talab qilmaydi, lekin ularning soni bo'yicha reprezentativlikni talab qiladi. Shuning uchun guruhga nafaqat turli xil o'lchamdagisi ayollar, balki old tomondan tana shaklidagi farqlar lordoz, kifoz, qorin va bo'ksa shakllari ham e'tiborga olingan.

Ayollar tanasining o'lchami va shaklini o'rganish uchun antropometrik tadqiqotlar olib borishda har bir o'lchovli xususiyat uchun o'lchovlar GOST 17-326-81 [6] talablariga javob beradigan 1 mm aniqlik bilan uch martadan amalga oshirildi.

Katta yoshdagisi ayollar morfologik xususiyatlarini tahlil qilish [1,5] manbaalarda keltirilgan metodologiyaga muvofiq amalga oshirildi. Ushbu metodologiyaga asosan 10 ta o'lcham bo'yicha antropometriya tadqiqotlari o'tkazildi (1-jadval).

Shuningdek, yoshi katta ayollarning vizual tahlil qilinganda, ayollarning 62 %da bilakning yuqori qismida yog' qatlamni rivojlanganligi yelkaning ko'ndalang diametri

kattalashishi va bo‘yin atrofidagi yog‘ birikmalari tufayli yelkaning qiyalik kengligi odatdagidan kamroq hamda yelkalari yumaloq shaklga ega bo‘lishi, ayollarning 67% da yog‘larining bel, qorin va sonlarda rivojlanishi va mushaklar massasini kamayishi hisobiga tana shaklini o‘zgarishi aniqlandi.

### 1-jadval

#### O‘rta yoshning ikkinchi va keksalik davrida ayollar tana o‘lchamlarini o‘zgarish qiymatlari

№	O‘lcham nomi	Shartli belgisi	O‘lcham o‘zgarishini o‘rtacha qiymati, cm	
			30-40 yosh	40-70yosh
1	Bo‘y	R	158-176	146-162
2	Ko‘krak aylanasi III	Og <sub>3</sub>	84-108	92-108
3	Bo‘ksa aylanasi	Ob <sub>1</sub>	92-116	100-120
4	Bo‘ksa aylanasi qorin bilan	Ob <sub>2</sub>	102-120	106-130
5	Yelka aylanasi	Op	28-36	32-42
6	Bo‘yin aylanasi	Osh	28-32	30-34
7	Bel chiqurligi I	Gt <sub>1</sub>	3-5	4-6
8	Bel chiqurligi II	Gt <sub>2</sub>	5-7	4-5
9	Gavda holat	Pk	4-5	6-7
10	Yelka balandligi	Vp	1,4-2,5	3-4

Yuqorida keltirilganidek, kiyimni loyihalash jarayonida impressiv yondashuvni qo‘llashda insonni antropometrik hususiyatlari bilan birga kiyim dizaynida kompozitsion echimini tahlil qilish ham muhim ahamiyatni kasb etadi. Kompozitsiya - badiiy asarning barcha elementlarini bir butunlikka birlashtirib, asarning siymoli, g‘oyaviy-badiiy mazmunini ifodalaydi [8].

Model kompozitsiyasini tahlil qilish jarayonida badiiy-konstruktiv tahlilining barcha bosqichlari har tomonlama, tizimli va imkon qadar ob’ektiv bo‘lishi kerak.

Bu bosqich kiyimlarning badiiy-konstrukturlik tahlili tizimidagi yakuniy bosqich hisoblanadi. Buning sababi shundaki, buyumning kompozitsion tuzilishi avvalgi barcha ishlarning tabiiy natijasi va barcha oldingi ishning oqibati bo‘lib, unda mahsulotning vazifalari va maqsadi, ishlatiladigan materiallarning imkoniyatlari va xususiyatlari, shakli va konstruksiyasini muvofiqligi, ishlab chiqarish texnologiyasining xususiyatlari aniqlanadi. Shaklning tuzilishi va uning rivojlanish mantig‘i to‘g‘risidagi xulosalar dastlabki ishda tayyorlanishi kerak. Shunda kompozitsion xususiyatlarni tahlil qilish ob’ektiv qonuniyatlarga asoslanadi.

Turli maqsadlar uchun loyihalanadigan kiyimdagи badiiy va estetik xususiyatlarning turli nisbati o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. O‘rta yoshning ikkinchi davri va keksa yoshdagi ayollar kundalik ish kiyimlarini loyihalashda funksionallik birinchi o‘rinda turadi. Bu badiiy-konstruktiv tahlilining ketma-ketligiga ham ta’sir qiladi.

Kompozitsiyaning tarkibiy qismlari bo‘lib uning elementlari, vositalari va xususiyatlari kiradi. Modelning kompozitsion konstruksiyasini tahlil qilganda, buyum muallifi tomonidan kompozitsiyaning qanday elementlari va vositalaridan foydalanganligi va undan nima kelib chiqqanligini izchil ko‘rib chiqish kerak.

Kiyim tarkibining elementlari, vositalari va xossalarni o‘rganish masalasini to‘liqroq va aniqroq yoritish uchun ularni tahlil qilish jadval ko‘rinishida amalga oshirilishi kerak, shunda hech bir nuqta ko‘zdan chetda qolmaydi. Jadvallarda ma’lum bir modelda u yoki bu element yoki kompozitsiya vositalarining nima va qanday namoyon bo‘lishi (yoki namoyon bo‘lmasligi) aniq qayd etilgan.

Masalan, kontrast, nyuans va o‘xshashlik mahsulot shakli elementlarining birligiga va ularning uyg‘un bog‘lanishiga erishish uchun badiiy vosita sifatida ishlatiladi. Ular massa va hajmni (yengil va og‘ir, katta va kichik), materialning fakturasinig yuza tuzilishini (silliq, yaltiroq, xira, strukturaviy va boshqalar), rang tusini (qo‘sishimcha, o‘xshash, o‘shash-kontrast, issiq va sovuq, xromatik va aromatik), yorqinligi (och tusli va to‘q tusli) va boshqalarni solishtirishga hizmat qiladi[10].

Kostyum kompozitsiyasidagi ritm shaklning barcha qismlarini aloqa qilishning eng muhim vositalaridan biridir. Uning xarakterli xususiyati - elementlarning takrorlanishi va ular orasidagi intervallar, o‘ziga xoslik yoki o‘xshashlik belgilari bilan ma’lum bir aniq naqshga birlashtirilgan. Bunday takrorlashlarning ko‘p imkoniyatlaridan kelib chiqib, ma’lum kompozitsion echimlarni keltirib chiqaradigan turli xil hissiy effektlar va kayfiyatlar shakllanadi. Buyumning maqsadi va kompozitsiyaning ritmik tuzilishi o‘rtasidagi bog‘liqlik qanchalik kuchli bo‘lsa, bu mahsulot tarkibi shunchalik uyg‘un va ifodali bo‘ladi [9].

Kiyim modeli tarkibining uyg‘unligi va yaxlitligiga erishish uchun rang muhim ahamiyatga ega. Optik illyuziyalar mavjudligi sababli, u odamga hissiy ta’sir ko‘rsatadigan shaklni va uning alohida qismlarini ochishga (yoki yashirishga) yordam beradi. SHuningdek, rangning ijtimoiy funksiyalarini hisobga olish kerak. U yosh, jins va kasbiy farqlarni belgilash vositasi sifatida ishlatiladi. Kostyuming rang sxemasi ham u bajarishi kerak bo‘lgan funksiyaga, ya’ni maqsadiga bog‘liq. Rang va uning kombinatsiyalaridan mohirona foydalanish kompozitsiyaning yanada uyg‘un yaxlitligiga erishish va modelning badiiy va majoziy ekspressivligini oshirish imkonini beradi.

Nisbatlar kompozitsiyaning universal vositasidir. Ularning o‘zgarishi dizaynerga ko‘proq semantik effektlarni olish imkonini beradi. Nisbatlarning buzilishi mahsulot shaklining uyg‘unligini, uyg‘un yaxlitligini yo‘qotishiga, hamda insonni qomatini buzib ko‘rsatishga olib keladi.

Nisbatli munosabatlar yechimiga ob’ektning maqsadi va uni loyihalashdan ajralgan holda yondashmaslik kerak. Kiyimdagи nisbatlar modaga juda ta’sir qiladi.

Ommaviy ishlab chiqarishga chiqarilgan mahsulotlarning mutanosib bo‘linishlari "oltin kesim" tamoyili va inson figurasining tabiiy nisbatlariga asoslangan klassiklarga yaqin bo‘lishi kerak. Eng ifodali nisbatlarni aniqlash mezonlaridan biri kiyimning funksionalligidir. Klassik shakl imkon qadar funksionaldir, u estetika va foydalilik o‘rtasidagi muvozanatni topadi.

Model kompozitsiyasini yaratishda va ularni jadvallarga kiritishda foydalaniladigan ushbu va boshqa darajadagi elementlar yoki vositalarni tahlil qilishga e’tibor qaratib, kompozitsiyaning xususiyatlarini ham baholash mumkin.

Asosiy kompozitsion urg‘u qaysi elementlar va vositalar yordamida ta’kidlanganligini, shuningdek, yaxlitlik va ko‘lamlilik, ifodalilik va uyg‘unlik darajasini aniqlash muhimdi.

Har qanday shakldagi kompozitsion echimni baholashning eng muhim mezoni uning yaxlitligidir. Agar shaklning hajmi fazoviy jihatdan murakkab bo‘lsa, unda birinchi navbatda uning tarkibiy jihatdan juda izolyasiya qilingan va asosiy narsaga bo‘ysunmaydigan qismlari paydo bo‘ladimi-yo‘qligiga e’tibor berish kerak. Bu, ayniqsa, hajmning alohida qismlari juda mustaqil kompozitsion o‘qlarga ega bo‘lsa va qolgan qismlar bilan bir butunga bog‘lanmagan bo‘lsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Shaklning yaxlitligini hisobga olgan holda kompozitsion echim tahlilini boshlash va unga mahsulotda qanday erishish mumkinligini aniqlash, bosqichma-bosqich kompozitsion kamchiliklar yoki afzalliklarning sabablarini aniqlash kerak.

Kiyimlarni loyihalashda kompozitsion tuzilishga nisbatan yaxlitlikka ikkilamchi va asosiyning mutanosibligi, chiziqlar, tekisliklar va hajmlarni tashkil etish, rang va dekorning mos kelishi bilan erishiladi.

Butunlik va o‘lchov tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Uch o‘lchovli shakl bo‘lgan kiyimdagи bu xususiyat ularni taqqoslashda ikki yoki undan ortiq shakllarning nisbati sifatida ko‘rib chiqilishi kerak (masalan, lif va yubka, eng va yubka va boshqalar).

Ob‘ektning masshtabsizligi nisbatan zararsiz bo‘lishi mumkin, faqat ob‘ekt va atrof-muhit o‘rtasidagi bog‘lanishlar buzilganda, ob‘ekt, ular aytganidek, umumiy masshtabdan chiqib ketadi. Ammo miqyosli bo‘lmagan tahdid, odam va ob‘ekt o‘rtasidagi aloqa buzilganda ancha jiddiy oqibatlarga olib keladi.

Uch o‘lchovli shakl bo‘lgan kiyimdagи kompozitsiyaning xossasi sifatida masshtab ikki yoki undan ortiq shakllarni solishtirganda nisbati sifatida ko‘rib chiqilishi kerak (masalan, kurtkasi va shimplari, englari va kurtkasi va boshqalar). Bir shaklning boshqasiga nisbatan kattaligidagi farq qanchalik aniq bo‘lsa, bunday shakllar shunchalik diqqatni tortadi. Kostyum shaklining ko‘lamini inson qiyofasiga nisbatan bir butun sifatida kuzatish juda muhimdir.

Shaklni uning barcha qismlarining xarakter birligi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak. Bu, birinchi navbatda, hajm va makon jihatidan murakkab bo‘lgan shakllarga taalluqlidir.

Kostyum kompozitsiyasidagi ifodalilik xususiyatini ko‘rinish va jozibalilik darajasi sifatida emas, balki dizaynerning asosiy g‘oyasining eng to‘liq ifodasi sifatida tushunish kerak, ya’ni bu kostyuminning asosiy maqsadi, uning atrof-muhit bilan aloqasi qanchalik aniq ifodalanganligi, shaklda, rangda, chiziqlarda va boshqalarda ohib berilgan. Ushbu ish doirasida ob’ektiv matematik rejalshtirish usullaridan foydalangan holda modellarning ifodalilik darajasini aniqlashga harakat qilindi.

Kiyim kompozitsiyasini yaratish deganda komponentlar xarakterini topish, ularning bo‘ysunishiga erishish va bir-birini to‘ldirish, umumiy uyg‘unlikka erishish, badiiy tasvirni ochish tushuniladi.

Kiyim tarkibini tahlil qilish nafaqat funksional, texnik va texnologik jihatdan mukammal shaklni yaratishga, balki unga yuqori estetik fazilatlarni berishga yordam beradi: go‘zallik, uyg‘unlik, qismlarning mutanosibligi va yaxlitligi, tasviriyligi, boshqa ob’ektlar bilan stilistik aloqasi.

Kiyimlar kompozitsiyasi mazmun va shakl birligini ifodalaydi. Tarkibi uning maqsadini belgilaydi. Kompozitsiya mazmunini butunlay va uning vazifasini qisman ochishga imkon yaratishi kerak.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, kompozitsiyaning tarkibiy qismlari uning elementlari, vositalari va xususiyatlari hisoblanadi. Kiyimlarning badiiy loyihalashda turli maqsadlar uchun bu komponentlarning ahamiyati boshqacha bo‘ladi.

## TADQIQOT NATIJALARI

Badiiy-konstrukturlik tahlili jarayonida kiyim kompozitsiyasining tarkibiy qismlarining ahamiyatlilik darajasini izlash matematik rejalshtirishning lotin kvadrati  $3 \times 3$  usuli qo‘llanildi. Kiyim kompozitsiyasining tarkibiy qismlarining ahamiyatlilik darajasi sifatida qabul qilingan optimallashtirish mezoniga uchta darajada o‘zgarib turadigan uchta sifat omilining ta’siri o‘rganildi. Quyidagi omillar tanlandi: X<sub>1</sub> - kompozitsiya elementlari ( $a_1$  – material fakturasi va rangi bilan,  $a_2$  - chiziqlar,  $a_3$  - shaklning geometrik belgisi); X<sub>2</sub> - kompozitsiya vositalari ( $b_1$  - ritm,  $b_2$  - nisbatlar,  $b_3$  - kontrast, nyuans va o‘xhashlik qonuni); X<sub>3</sub> - kompozitsiyaning xususiyatlari (A - yaxlitlik, B - masshtab, C - ifodalilik).

Hisob-kitoblar natijasida tuzilgan dispersiya tahlilining yig‘ma jadvalida kompozitsiyani tahlil qilish jarayonida tarkibiy qismlarning ahamiyatini aniqlashda o‘rganilayotgan omillarning ahamiyatini aniqlaydigan aniq yakuniy ma’lumotlar berilgan. Chiziqli omillarning ahamiyati Fisher mezoni yordamida uning tajribaviy va jadval qiymatlarini solishtirish orqali tekshirildi (2-jadval).

## 2-jadval

### Kiyim kompozitsiyasi komponentlarini ahamiyatlilik darajasi

Dispersiya manbai	Erkinlik darajasi soni	Kvadratlar yig‘indisi	O‘rtacha kvadrat	Fisher mezoni (F)		Ahamiyatlilik darajasi
				Tajriba asosida	Jadval asosida	
X1-omili	n-1=2	27,5	13,75	50,9	3,49	Juda muhim
X2-omili	n-1=2	17,5	8,75	32,4	3,49	Katta ahamiyatga ega
X3-omili	n-1=2	4,7	2,35	8,7	3,49	Ahamiyatga ega
Katak ichida	$m^2(n-1)=18$	5	0,27	-	-	-

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, kompozitsion elementlar kabi komponent kiyimni loyihalashda katta ahamiyatga ega. Haqiqatan ham, kiyimlarini loyihalashda, birinchi navbatda, matoning xususiyati, chiziqlar va shakllarning ravshanligini hisobga olish kerak.

## 3-jadval

### Kiyim kompozitsiyasi komponentlarini ahamiyatlilik darajasi

Namuna №	Tarkibi, %	Yuza zichligi g/m	Havo o‘tkazuv-chanligi %	Gigroskopikligi %	G‘ijimla-nuvchanlik %	Ishqalanishga chidamlili-gi, sikl	Qalinligi, mm
<b>kostyumbop</b>							
1	50.1 jun 49.9 pe	294.8	36.51	3.70	78.8	23.000	0.7
2	100 pe	324.5	18.5	0.23	85	24.000	0.9
3	11.4 paxta 88.6 pe	318.5	49.6	1.02	73.3	24.000	0.7
4	11.2 paxta 88.8 pe	388	34.50	1.24	86.11	27.500	0.8
5	100 pe	200.65	10.55	0.25	93.88	30.000	0.4
6	20.2 paxta 79.8 pe	312.6	2.50	1.95	81.1	28.000	0.75
<b>ko‘ylakbop</b>							
7	8.3 nitron 91.7 pe	124.6	87.7	0.59	86.11	18.500	0.3
8	100 pe	190.2	40.9	0.37	89.4	24.000	0.45
9	100 pe	97.8	61.0	1.55	100	18.500	0.3
10	100 pe	122.4	21.5	0.72	99.44	14.000	0.3
11	60.7 visk. 39.3 pe	149.65	164.9	8.18	87.22	13.700	0.4
12	100 pe	163.2	106.7	0.85	76.11	18.700	0.4

Shuningdek, o‘rta yoshning ikkinchi va keksalik davridagi ayollar kundalik ish kiyimi uchun dizaynnini yaratishda kompozitsiya vositalari ham katta ahamiyatga ega: ritm, nisbatlar, kontrast, nyuans va boshqalar.

Keyingi eng muhim o‘rinni kompozitsiyaning xususiyatlari: ekspressivlik, yaxlitlik, ko‘lamlilik egallaydi, ular kiyimlarni yaratish va baholashda kompozitsiya elementlari va vositalariga qaraganda kamroq ahamiyatga ega.

Ushbu tahlil natijasida o‘rta yoshning ikkinchi va keksalik davridagi ayollar kundalik ish kiyimi uchun taklif etilayotgan bir nechta mato turlari o‘rganildi (3-jadval).

O‘rta yoshning ikkinchi va keksalik davridagi ayollar kundalik ish kiyimini yaratishda fiziologik o‘zgarishlarni, ko‘p terlash jarayonini sodir bo‘lishi vaqtida kiyim osti mikroiqlimini normal holatda ta’minlanishi matoning havo o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichiga, hamda kundalik ish kiyimini estetik ko‘rinishi, uning g‘ijimlanuvchanligiga bog‘liqligini inobatga olib tajribalar natijasi asosida kostyumbop mato turlaridan g‘ijimlanuvchanligi kam va havo o‘tkazuvchanligi yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan №1 va №3 namunalar, ko‘ylakbop mato turlaridan g‘ijimlanuvchanligi kam va havo o‘tkazuvchanligi yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan №11 va №12 namunalar tavsiya etildi.

## XULOSA

Kiyimlar kompozitsiyasining tarkibiy qismlari bo‘yicha tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadi, uning maqsadi nafaqat kompozitsiyani rivojlantirishda balki, shubhasiz, badiiy-konstruktiv tahlilining ketma-ketligini aniqlashda eng muhim nuqta hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishi doirasida olib borilgan izlanishlar o‘rta yoshning ikkinchi davri va keksalik yoshdagi ayollar uchun klassik uslubidagi kundalik ish kiyimi garderobini yaratishga asos bo‘lib hizmat qiladi. Shuningdek, impressiv yondasuv orqali ushbu yoshdagi ayollarga tavsiyalar hamda rasional konstruksiyani taklif etish uchun muhim omil bo‘lib xizmt qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Кадирова, Д. Х., Нигматова, Ф. У., Эргашева, Н. Д., & Дехканова, Р. Э. (2022). Особенности конструирования женской одежды для женщин старшего возраста. Современные инновации, системы и технологии - Modern Innovations, Systems and Technologies, 2(3), 0211–0221.
2. Клепп, И. Мода сквозь призму возраста: взгляд девочек-подростков и взрослых женщин на то, как одежда отражает их статус / Ингун Гримстад Клепп, Ардис Сторм-Матисен // Международный журнал Теория моды.- 2011.- №20.- с.30-63

3. Коробцева Н.А., Ваниева О.В. Имидждизайн одежды: стилевые типажи для пожилых женщин//Имидж женщины XXI века: успех, красота, стабильность: Материалы III международного женского конгресса (Москва, 10 марта 2016)/ под науч. ред. Е.А. Петровой. - М.: Издательство Академии имиджелогии, 2016. - с. 312-318.
4. Крайг Грэйс. Психология развития. Основы морфологии и биомеханики человека: Учебн. пособие /Л.П. Питер; 2000.
5. Кадирова Д.Х., Нигматова Ф.У. Антропологические особенности телосложения женщин пожилого возраста. Текстильный журнал Узбекистана. Ташкент. 2022; 1.
6. ГОСТ 17-326-81. Типовые фигуры женщин. Отраслевой стандарт, 1981 г.
7. Коробцева, Н.А. Импрессивное проектирование одежды и формирование гардероба для пожилых женщин: учебное пособие/Н.А Коробцева, О.В.Ваниева - М.: РИОМГУДТ, 2014.-33с.
8. Ермолаева, Л.П. Основы дизайнерского Искусства / Л.П. Ермолаева.: Учебное пособие.-М.: Архитектура-С,2009.-153 с.,илл.
9. Гусейнов, Г.М. Композиция костюма: Учебное пособие/ Г.М Гусейнов, В.В. Ермилова, В.В. Ермилова.-М.: Академия, 2004.- 432 с.
10. Хендерсон, В. Цвет и стиль: выглядеть моложе /В. Хендерсон, П. Хеншоу; пер с англ. М.Ч. Копецкой-Линчевской - М.: Издательский центр «Кладезь-Букс», 2008. – 160 с.
11. Pantone Textile System. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://pantone.macstudio.ru/textile.html>
12. Смирнова Т.В. Пожилые люди: стереотипный образ и социальная дистанция [Электронный ресурс]: информационный портал – Режим доступа: <http://www.demoscope.ru/weekly/2008/0357/analit02.php>
13. Ваниева О. В., Коробцева Н. А. Разработка импрессивной оценки психологической комфортности одежды из трикотажа для пожилых женщин // Журнал Бюллетень науки и практики 2016 №3 с. 35-45 [Электронный ресурс]: - Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com>